

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

**OLIY O'QUV YURTI TALABALARINI SMART TA'LIMNING BUGUNGI KUNDAGI
O'RNI MAVZUSINI O'ZLASHTIRISHDA SINKVEYN METODIDAN FOYDALANISH**

Muallif: Zaripova Dilnoza Anvarovna

Muhammad al Xorazimi nomidagi TATU AKT sohasida KT fakulteti o'qituvchisi

PHD. Tel:+998998331188

Quvondiqova Fero'za Muzaffar qizi

*Muhammad al Xorazimi nomidagi TATU AKT sohasida KT fakulteti
talabasi. Tel:+998911891009*

Tursunova Muxlisa Maxamadjon qizi

*Muhammad al Xorazimi nomidagi TATU AKT sohasida KT fakulteti
talabasi.:+998 900018160*

Ushbu maqolada hozirgi kunda eng ommalashgan ta'lim shakillaridan biri bo'lgan SMART ta'lim texnologiyasini mazmun mohiyatini o'quvchilarga zamonaviy metod yordamida o'qitish masalalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Smart ta'lim, virtual auditoriya, sinkveyin, onlayn ustoz, texnologiya.

O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida» (2003), «Elektron hujjat aylanish to'g'risida» (2004), «Elektron hukumat to'g'risida» (2015) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2017 yil 30 iyundagi PF-5099-son «Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrdagi “Zamonaviy mакtab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4537-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida” qarori, 06.10.2020 yildagi PQ-4851-son va “Raqamlı O'zbekiston — 2030” strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida keljak avlodni zamonaviy texnologiyalar bilan birqalikda zamonaviy va yangi jahon standartlariga mos keladigan ta'lim metodlari qo'llanishi keng yo'lga qo'yilmoqda va ta'lim muassalarida ko'plab chora tadbirlar amalga oshirilmoqda xususan dars jarayonida zamonaviy AKT imkoniyatlaridan foydalanish, darslar saviyasi va mazmunini oshirish maqsadida zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda.


SMART texnologiya har bir sohada maqsadlarni to'g'ri qo'yish va vazifalarni aniqlashda zamonaviy yondashuv bo'lib, dastlabki bosqichda barcha mavjud ma'blumotlarni umumlashtirishga, faoliyatning maqbul (optimal) shartlarini

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

ko'rsatishga, resurslarning adekvatligini aniqlashga va jarayonning barcha ishtirokchilariga aniq va tushunarli vazifalarni taqdim etishga imkon beradi.

SMART asosiy foydalanuvchilar (talabalar, o'qituvchilar, tadqiqotchilar) bilan o'zaro hamkorlik qilish orqali universitet foydalanadigan asbob-uskunalar va energiya manbalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Aqli texnologiyalar nafaqat o'quv jarayonini olib borishda instrumental texnologiyalarda (SMART board va boshqalar), balki innovatsion o'quv dasturlari va fanlarida ham mavjud bo'lgan o'quv dasturlarini amalga oshirishda qo'llaniladi. Bu sizga inqilobiy o'quv materiallarini ishlab chiqish, shuningdek, talabalar uchun individual ta'lim yo'llarini yaratishga imkon beradigan aqli texnologiyalardir. SMART ta'lif konsepsiysi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

SMART texnoalogiyasi - foydalanuvchilarda maqsadni aniq qo'yish, maqsadga erishish yo'llarini belgilash, uni amalga oshirish va asosan belgilangan vaqt ichida unga erishish texnikasini o'rgatadi. Ushbu chizmada Smart ta'lif haqida yana kengroq ma'lumotga ega bo'lasiz:



Ushbu maqolada hozirgi kunda ta’lim tizimimizga kirib borayotgan elektron ta’lim mavzusini tahlil qilib ko’rib chiqamiz. Ayni damda bu ta’lim tizimi, ta’lim tizimimizga kirib kelishi, uni amalyotta qo’llashimiz qanchalik foydali va ta’lim tizimimizni jahon standartiga mos holatga yetqazish uchun ahamyatliligiga amin bo’lamiz shu bilan birga hozirgi kunda qo’lanilayotgan zamонавиy metodlardan biri “Sinkvein” metodidan foydalanib “SMART” so’zini ko’rib chiqamiz. Dastlab metoddan foydalanish bosqichlarini ko’rib chiqamiz:

Sinkveyn – bu ma’lum qoidalarga asosan tuzilgan 5 ta satrdan iborat bo’lgan she’rdir.

1 satr – mavzu nomi;

2 satr – bu mavzuni ikkita sifat bilan aniqlash;

3 satr – bu mavzu doirasidagi faoliyatni ko’rsatuvchi 3 ta fe’l;

4 satr – muallifning mavzuga munosabatini bildiruvchi 4 ta so’zdan iborat bo’lgan jumla;

5 satr – mavzu yakuni, ixtiyoriy so’z bo’laklarida ifodalangan birinchi so’z sinonimi.

Sinkveyn tuzish ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o’rganilayotgan mavzuga o’z munosabatini bildirishni o’rgatadi. Quyida “SMART” so’ziga sinkveyn metodiga namuna keltirilgan:

SMART

aqlii, onlayn

muvafaqqiyatli faoliyat yuritadi, ko’plab ma’lumot almashadi, axborotlashgan muhitni yaratadi

SMART aqlii innovatsion texnologiya

Virtual

Demak ta’lim tizmini rivojlantirish (zamonaviylashtirish) deganda faqat so’ngi texnologiya narsalari electron doska, planshet, telefon, electron kitoblar, aqilli stol, kompyuter bilan birgalikda ularni izchil tizimlashtirish uchun shunga mos ta’lim tizimi, Smart ta’lim bo’lishi zarur. Ushbu ta’lim tizimidan foydalanish, ta’lim jarayonida yangi usul va uslublarni yaratish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Shubhasiz, bu o’qituvchining o’quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatida o’z ustida ishslash lozimligini talab qilib, o’quvchilarning bilim faolligini va qiziqishlarini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda texnika asrida yashar ekanmiz har qadamimiz, kundalik hayotimizni ularsiz tasavvur qila olmaymiz, shu jumladan ta’lim tizmini ham. Ta’lim tizmini elektron tizimlashtirish xalqaro doirada bilimga ega bo’lish bilan birgalikda jahon standartlariga javob bera oladiga yetuk kadrlarni tarbiyalsh imkonyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrdagi “Zamonaviy mакtab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4537-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, 06.10.2020 yildagi PQ-4851-son.
3. D.A Zaripova (Phd) Laboratory classes on "Educational Technologies" (Methodical instructions).
4. Elov B.B. Oliy ta’lim muassasi o’quv jarayoni boshqaruvi avtomatlashtirilgan tizimi. Buxoro: O’zbekiston, Monografiya, 2006.
5. Elov B.B. Oliy ta’lim muassasasi o’quv jarayoni boshqaruvining relyatsion modeli. O’zbekiston Informatika va energetika mummolari jurnali. O’zbekiston Jurnali. - Toshkent, 2007.
6. Elov B.B. Oliy ta’lim muassasasi o’quv jarayoni boshqaruvi jarayonlar modeli. O’zbekiston Informatika va energetika mummolari jurnali. O’zbekiston Jurnali. - Toshkent, 2007.